

7-dars

Darsning mavzusi: Unli tovushlar va harflar (20 – 22-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: tovushlar, ularning so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri talaffuzi, tovushlarning harflar bilan yozilishi, harflarning belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bilish; talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'ziga kichiklarga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilardagi fonetik idrokni rivojlantirish; ularda bor bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; texnika vositalaridan, didaktik materiallardan foydalanish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analitik-sintetik metodi, *"Tezda top!"* ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: tovushlar uchun katakchalar, kesma harflar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Tabiatni seving va asrang.*

Uy vazifasi 19-mashqda berilgan vazifalar o'quvchilardan so'raladi. Qo'shimcha savollar berilib, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

20-mashq sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Berilgan to'rtlik tog'lar haqida ekanligi, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish kerakligi uqtiriladi. Savollarga javob olinadi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarda nechta tovush bor? She'rdagi so'zlarga mos bitta tovush bilan farqlanadigan boshqa so'zlarni topish aytiladi:

Masalan: *keng – yeng, yayradim – sayradim, quchoq – uchoq, uzoq – tuzoq, oy – soy – boy, tog' – bog'.*

So'ngra o'quvchilar guruhga bo'linadi va 21-mashq bajariladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi.

1-guruh a harfidan boshlanib, **a** harfi bilan tugaydigan so'zlarni yozadilar.

Masalan: *Aziza, aka, Asaka, albatta, Adiba, alla, alloma,...*

2-guruh k harfidan boshlab, **k** harfi bilan tugaydigan so'zlarni yozadilar.

Masalan: *kiyik, kerak, kemptik, kaltak, ko'mak, kichik, katak...*

3-guruh q harfidan boshlab, **q** harfi bilan tugaydigan so'zlarni yozadilar.

Masalan: *quchoq, quloq, qalpoq, qadoq, qarmoq, qiziq, qoloq...*

Mustahkamlash jarayonida "Tezda top!" usulidan foydalanish. Bunda doskaga 4 nafar o'quvchi chiqariladi, o'quvchilarga so'zlar aytiladi va so'zlardagi tovushlarni ajratish topshirig'i beriladi. Ularning qo'llariga ko'k va qizil rangdagi doirachalar beriladi. Unli harf bilan boshlanadigan so'zlarga qizil doiracha, undosh harf bilan boshlanadigan so'zlarga ko'k doirachalarini ko'taradilar. Bu usuli orqali o'quvchilarni tezkorlikka o'rgatilib boriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Quyidagi savollar yordamida savol-javob o'tkazilib, dars mustahkamlanadi.

1. *Alifboda nechta harf bor?*
2. *Unli va undosh tovushlarni ayting.*
3. *Bo'g'in deganda nimani tushunasiz?*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

22-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.